

AQLIY VA JISMONIY IMKONIYATI CHKELANGAN BOLALAR UCHUN MAXSUS TA'LIM DASTURLARI

Qo'qon universiteti Ta'lism fakulteti

“Maktabgacha ta'lism” yo'nalishi talabasi

Qambarova Yoqutxon Obidjon qizi

Email:yoqutxonobidjanovna979@gmail.com

Annatatsiya. Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Imkoniyati cheklangan bolalar ta'limida yechimni kutayotgan masalalar talaygina, ko'pchilikka sezilmaydigan, ammo minglab insonlar uchun dolzarbligicha qolayotgan mavzu yuzasidan qator mutaxassislar ishlar olib borishmoqda. Jamiyatda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan aqliy rivojlanishida muammo bo'lgan bolalarni maxsus maktabgacha ta'limga borishini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, nogironligi bo'lgan bolalarning huqularini himoya qilish hamda inklyuziv ta'limga jalg etish UNICEF tashkiloti tomonidan amalga oshirilmoqda. Bu esa maxsus maktabgacha va maktab ta'lim aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan bolalarning UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro huquqiy hujjatlar asosida zamonaviy ta'lim olishini kafolatlaydi. Ushbu maqolada aqliy va jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlari haqida misollar keltirib o'tilgan.

Annatatsiya. The issue of educating children with disabilities is becoming one of the most urgent issues today. A number of specialists are working on a topic that is not noticed by many, but remains relevant for thousands of people. Ensuring that children with mental development problems who need special education in society go to special preschool education, strengthening the social protection system, protecting the rights of children with disabilities, and involving them in inclusive education are carried out by UNICEF. is increasing. This ensures that special preschool and school education for children with intellectual development problems will receive modern education based on international

legal documents developed by UNICEF. This article provides examples of special education programs for children with mental and physical disabilities.

Аннотация. Вопрос обучения детей с ограниченными возможностями здоровья сегодня становится одним из самых актуальных. Ряд специалистов работают над темой, которая не замечается многими, но остается актуальной для тысяч людей. ЮНИСЕФ усиливает обеспечение поступления детей с проблемами психического развития, нуждающихся в специальном образовании в обществе, в специальное дошкольное образование, укрепление системы социальной защиты, защиту прав детей с ограниченными возможностями, вовлечение их в инклюзивное образование. Это гарантирует, что специальное дошкольное и школьное образование дети с проблемами интеллектуального развития получат современное образование на основе международно-правовых документов, разработанных ЮНИСЕФ. В данной статье приведены примеры программ специального образования для детей с умственными и физическими недостатками.

Kalit so'zlar:UNICEF, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), ta'lif, maxsus ta'lif, dastur, rivojlanish, inklyuziv ta'lif, xalqaro hamkorlik, imkoniyati cheklangan bolalar

Keywords:UNICEF, UN (United Nations), education, special education, program, development, inclusive education, international cooperation, children with disabilities

Ключевые слова:ЮНИСЕФ, ООН (Организация Объединенных Наций), образование, специальное образование, программа, развитие, инклюзивное образование, международное сотрудничество, дети с ограниченными возможностями

Kirish. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan ijtimoiy tenglik qoidalarini amalga oshirishda ta'lifning barcha uchun ochiqligini, gender jihatdan tenglikka asoslanganligini ta'minlovchi mexanizmlarini amaliyatga joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon ta'lifi amaliyotida ta'lim oluvchilar ehtiyojlariga moslashuvchan o'quv muhitini yaratish, variativ o'quv dasturlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kun sayin ortmoqda. BMT ning ta'lif sohasidagi siyosati yo'nalishlaridan

biri bolalarning alohida ta'lim ehtiyojlari xilma-xilligini hisobga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadigan inklyuziv ta'lim g'oyalarini ishtirokchi davlatlar tomonidan keng amalga oshirilishini ta'minlash hisoblanadi. Aqliy va jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lim dasturlari har bir bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Bu dasturlarning asosiy maqsadi bolalarning potentsialini to'liq ochish va ularga hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatishdir. Maxsus ta'lim dasturlari bolalarga nafaqat akademik bilimlarni, balki hayotiy ko'nikmalarni ham o'rgatadi. Bu esa ularning mustaqilligini oshiradi va jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Bunday dasturlar bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, ijtimoiy aloqalarini rivojlantiradi va kelajakda ish topish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuni ta'kidlash joizki, inklyuziv ta'lim sharoitida bola sog'lom tengdoshlari orasida bo'lib, oilasidan ajralmagan holda holda ta'lim -tarbiya olishga muyassar bo'ladi. Hozirgi kunda jaxon miqyosida keng targ'ibot qilinayotgan inklyuziv ta'lim strategiyasi, ya'ni rivojlanishida muammolari bor bo'lgan bolalarni o'qitish, tarbiyalash masalasi O'zbekistonda ham dolzarb muammolar sirasiga kiradi. Respublikamizda inklyuziv ta'lim siyosatini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tatbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini o'rghanish davlat va nodavlat tashkilotlarining hamkorlik loyihalari, jumladan: Xalqaro UNESCO, UNICEF, OSIYO TARAQQIYOT BANKI, Osiyo mintaqasi Yaponiyada joylashgan UNESCOning madaniy markazi (ACCU), USAID, "MERCY PROJEKT", "OPERATION MERSY" nodavlat tashkilotlari, "Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi" (RBIMM), "Sen yolg'iz emassan", "Ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash fondi" (ITQQF), Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining pedagogika yo'naliqidagi instituti, xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash va milliy nodavlat jamoat tashkilotlarining hamkorlik loyihalari asosida Respublika va xalqaro seminar, konferensiya, forumlarni o'tkazish, targ'ibot-tashviqot ishlari olib kelinmoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda imkoniyati cheklangan boalar ta'limini quyidagi tartibda amalga oshirilmoqda:

1. Maxsus mакtab, mакtab-internatlaridagi korreksion ta'lim;
2. Maxsus maktabgacha ta'lim;

3. Umumta'lim maktablari qoshidagi integratsiya sinflar;
4. Umumta'lim mакtabgacha ta'lism tashkilotlaridagi integratsion guruhlarda logopedic guruhlarda;
5. Umumta'lim muassasalarida inklyuziv sinf va punktlarda;
6. Uyda yajja tartibda;
7. Urta maxsus kasb-hunar kollejlarida va oliy ta'lism tizimida
8. Nodavlat pedagogic korreksion reabilitatsiya markazlarida;

So'ngi yillarda maxsus mакtabgacha ta'lism tashkilotlarida ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan maxsus mакtabgacha ta'lism tashkilotlari uchun davlat ta'lism talablari nuqson turlari bo'yicha 50 dan ziyod metodik qo'llanma, dastur, tavsiyalar ishlab chiqilmoqda va amaliyatga tatbiq ko'rilmoxda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri sog'lom bolalar va imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida sog'lom munosabatni shakllantirishdir. Imkoniyati cheklangan bolalar ham barcha bolalardek bola hisoblanadiva u tan olinishi, hurmatga sazovor bo'lishi haqli, uning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbol holat hisoblanadi.

Inklyuziv ta'lism mumammolari:

1. Ko'plab davlatlarda inklyuziv ta'lismni joriy etish davlat normative hujjatlarida qayd qilinmaganligi;
2. Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat;
3. Imkoniyati cheklangan bolalarning guruhlarda ko'rinasligi muammosi;
4. Nogiron bolalarning mакtabga bormasligi muammosi;
5. Mablag' etishmasligi muammolari;
6. Ta'lism muassasalarini inklyuziv ta'limga moslashtirish muammolari;

Xar bir shaxsda mehr olish, e'tiborda bo'lish, himoyalanish, shaxsiylik Aynan shunday muammolarni bartaraf etish uchun bolalarni teng ko'rish uchun, kelishmovchilik, ziddiyatlar yuzaga kelmasligi va imkoniyati cheklangan bolalar ham sog'lom bolalar qatorida ta'lism olish imkoniyatiga ega ekanliklarini isbotlash uchun birga ta'lism olishlari maqsadga muvofiqdir.

Aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lif dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda jahon miqyosida turli yondashuvlar va tajribalar orqali amalga oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa ular ham sog'lom insonlar qatoridan o'stirishdir. Buning uchun asosiy maqsad ularga mos ta'lif dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim. Hozirgi kunda esa, bu borada BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) bilan hamkorlikda barcha davlatlar aqliy va imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus ta'lif dasturlarini ishlab chiqishmoqda. Misol tariqasi bir nechta mamlakatlarning xaxsus ta'lif dasturlarini ko'rib chiqamiz:

1. Global Hamkorlik: BMTning "Jahon Ta'limi uchun 2030-yil" Maqsadlari: BMT tomonidan belgilangan maqsadlar aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ta'limga e'tiborni oshirishga qaratilgan. Bunda ta'limni inkluziv qilish, barcha bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan.

2. Inkluziv Ta'lim Modellar:

Norvegiya ta'lim tizimi inkluziv yondashuvni qo'llaydi, bu yerda har bir bola, shu jumladan, imkoniyatlari cheklangan bolalar ham umumta'lim maktablariga qabul qilinadi. Maxsus o'qituvchilar va terapevtlar yordamida bolalarga individual yondashuv ta'minlanib kelinmoqda.

3. Individual Ta'lim Rejalari (IEP)

AQSh: Aqliy chekllovleri bo'lgan bolalar uchun Individual Ta'lim Rejalari (IEP) muhim ahamiyatga ega. Har bir bola uchun o'ziga xos ehtiyojlar, maqsadlar va o'quv metodlarini belgilovchi hujjat sifatida ishlab chiqiladi. Bular ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishga yordam beradi.

4. Maxsus Ta'lim Dasturlari

Kanada: Kanada ta'lim tizimida aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun maxsus maktablar va dasturlar mavjud. Masalan, "Pathways" dasturi bolalarning ijtimoiy, emotsiyonal va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bu dasturda bolalarga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishda ko'mak beruvchi maxsus o'qituvchilar ishlaydi.

5. Sensoriya Ta'lim

Avstraliya: Avstraliyada, aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun sensoriyaga asoslangan ta'lif dasturlari rivojlanmoqda. Bular bolalarning o'zini anglashini, hissiy va jismoniy ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. "Sensory Integration Therapy" metodlari bu borada keng qo'llaniladi.

6. Kengaytirilgan Jismoniy Faoliyat

Buyuk Britaniya: Buyuk Britaniyada "The Special Olympics" dasturi aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalarga sport orqali o'zlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bu dastur doirasida bolalar musobaqlarda qatnashib, jismoniy ko'nikmalarini oshiradilar.

7. Ko'p Yondashuvli Ta'lif

Germaniya: Germaniyada aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ko'p yondashuvli ta'lif tizimi mavjud. Bunda muammo hal qilish, loyiha asosida o'qitish va amaliy faoliyatlar orqali o'rganish qo'llaniladi. Bu usullar bolalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

8. Terapevtik Dasturlar

Fransiya: Frantsiyada terapevtik dasturlar, masalan, muvofiqlashtirilgan ergoterapiya, aqliy imkoniyatlari cheklangan bolalarga o'z qobiliyatlarini rivojlantirishda yordam beradi. Bu dasturlar bolalarning kundalik hayotida mustaqil ravishda yashashlariga imkon beradi.

Bunday tajribalar va yondashuvlar jahon miqyosida aqliy va jismoniy imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ta'lif sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning har biri o'ziga xos strategiyalar va metodlarni qo'llagan holda, bolalarning ijtimoiy, emotsiyal va akademik rivojlanishini qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Bundan tashqari BMT mkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lif sifatini oshirish bo'yicha yanada kengroq va chuqurroq maqsadlarni ham qamrab olgan.

Misol uchun:

1. Infratuzilmani moslashtirish va qulaylashtirish: BMT imkoniyati cheklangan bolalarning maktablarga va ta'lif muassasalariga kirishini osonlashtirish uchun jismoniy infratuzilmani takomillashtirishga e'tibor bermoqda. Bu rampalar, liftlar, ovozli va yozma yo'l-yo'riq ko'rsatmalari kabi qulayliklarni yaratishni o'z ichiga oladi.

2. Dasturlar va resurslarni yangilash va rivojlantirish: BMT bolalarning ta'lif olish jarayonini yengillashtirish uchun maxsus o'quv dasturlari, multimediya resurslari va boshqa yordamchi materiallarni ishlab chiqish va joriy qilishni rag'batlantiradi. Bu o'z ichiga qo'l yordami bilan tushuntirish, audiovizual yordam vositalari va maxsus o'qitish usullarini ham oladi.

3. Salomatlik va psixologik qo'llab-quvvatlash: BMT ta'lif jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarga nafaqat bilim berish, balki ularning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini qo'llab-quvvatlashni ham maqsad qilib kelmoqda. Shu sababli, psixologik xizmatlar va sog'liqni saqlash xizmatlariga oson kirish imkoniyatini yaratish muhim deb hisoblanmoqda.

4. Raqamli imkoniyatlarni oshirish: Raqamli ta'lif imkoniyatlarini kengaytirish ham BMT uchun ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Masofaviy ta'lif, virtual sinflar va imkoniyati cheklangan bolalarga moslashtirilgan texnologiyalar yordamida ular ta'lif olishda yangi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

5. Ota-onalar va vasiylarni jalg qilish: Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lif jarayonida ularning oilasi va yaqinlarining ishtiroki ham katta ahamiyatga ega. BMT ota-onalarni ta'lif jarayoniga faol jalg qilish, ularga kerakli bilim va ko'nikmalarni berish orqali farzandlarining ta'limidagi rolini kuchaytirishni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

6. Davlatlar o'rtaida tajriba almashinuvini kuchaytirish: BMT davlatlarni o'z tajribalarini o'rtoqlashish va global hamkorlik orqali imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta'lif sifatini yaxshilashga undaydi. Bu orqali davlatlar samarali ta'lif modellari va innovatsion usullarni bir-biridan o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

BMTning bu kabi keng qamrovli yondashuvlari imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limga bo'lgan huquqlarini to'liq himoya qilish va ularga teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan bo'lib, bu jamiyatda ta'lif olishdagi kamsitishlarni kamaytirishga yordam beradi

deb hisoblanmoqda. Bundan tashqari, BMTning bu yo‘nalishdagi keng ko‘lamli sa‘y-harakatlari global miqyosda imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim olishda teng imkoniyat yaratishga qaratilgan bo‘lib, kelajakda ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi va ijtimoiy hayotga faol qo‘shilishi uchun asos yaratishdir.

Xulosa qilib aytganda jamiyat rivojlangan sari yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalab yetishtirish ehtiyoji ortib, o‘zgarib, yangilanib bormoqda. Insonlar jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ta’lim tarbiya muassasalarini yaratish, yosh avlodni o‘qitish va tarbiyalash sohasidagi tajribalarni nazariy jihatdan anglash, umumlashtirib hayotga tatbiq qilip kelmoqda. Jamiyatimizda har bir shaxs ta’lim olishga haqli. Inson jamiyatda aqliy va imkoniyati cheklangan bo‘lsa ham ta’lim va tarbiya olishga haqlidir. Ular ham biz yashab turgan jamiyatning bir negizidir. Bunday insonlarning ta’lim olishida nafaqat O‘zbekiston balki, butun mamlakatlar ham chora tadbirlar ko‘rib kelmoqdalar. Siz ushbu maqolada aynan bir necha mamlakatlarning aqliy va imkoniyati cheklangan bolalar uchun ishlab chiqilgan dasturlarini ko‘rib chiqdingiz. O‘ylaymizki bu kabi dasturlar yaqin kelajakda barcha mamlakatlarda ham keng qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Scienceweb

<https://api.scienceweb.uz/> > 6...PDF
maxsus va inklyuziv ta’lim: an’ana,tajriba va innovatsiyalar» mavzusida
https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/6842/18838/65aa6e5eebf6_Respublika%2520maqola.pdf&ved=2ahUKEwivx8iq27uJAxVOFxAIHWNUnc4QFnoECBMQAQ&usg=AQVaw0WB-ZB-veCzpry_uJ3T8AI > <https://kun.uz/32037018?q=%2Fuz%2F32037018#!> >

F.U.QODIROVA, D.A.PULATOVA "Inklyuziv ta’lim:nazariya va metodika" kitobidan >

<https://lex.uz/uz/docs/-1866997?ONDATE=28.04.2021%2000>